

MAMLAKATNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYALARI VA STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH JARAYONLARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANISH OMILLARI

I.f.n., dots. **Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich**

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
ORCID: 0000-0003-0969-729X
ubaydullaevgayrat1962@gmail.com

Annotatsiya. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalari va strategiylarini amalga oshirish jarayonlarida inson kapitalini rivojlantirish omillarining nazariy va amaliy asoslarini o'rGANISH. Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivoj topishi uchun ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan amaliy ishlarning tahlili, dunyo sivilizatsiyalari va dunyo mamlakatlari qatori rivojlanish harakatlari. Innovatsion rivojlanish manfaatlari yo'lida inson kapitalini shakllantirish jarayonida shaxsni ta'limga, bilim, ko'nikma, qobiliyat, motivatsiya, kasbiy yo'naltirishga, yangi ma'lumot egalarini tayyorlashga, ijtimoiy talabni shakllantirishga va ehtiyojlarga javob beradigan kompetensiyalarni rivojlanishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, ta'lim tizimi, milliy inson kapitali, inson kapitaliga investitsiyalar, ta'lim sifati, tibbiyot xizmatlari, innovatsion iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, mehnat resurslari, ishsizlik, yalpi ichki mahsulot.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПРОЦЕССЕ РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИЙ И СТРАТЕГИЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ

К.э.н., доц. **Убайдуллаев Гайрат Зувайтович**

Каршинский филиал Ташкентского университета
информационных технологий имени Мухаммеда аль-Хорезми

Аннотация. Целью исследования является изучение теоретических и практических основ факторов развития человеческого капитала в процессе реализации концепций и стратегий социально-экономического развития Узбекистана. Анализ практической работы, направленной на совершенствование науки, образования, здравоохранения и культуры для развития человеческого капитала в новом Узбекистане, усилий по развитию наряду с мировыми цивилизациями и странами мира. В процессе формирования человеческого капитала в интересах инновационного развития он направлен на образование, знания, навыки, умения, мотивацию, профессиональную ориентацию личности, подготовку носителей новых знаний, формирование социального спроса и развитие компетенций, которые удовлетворить потребности.

Ключевые слова: Образование, система образования, национальный человеческий капитал, инвестиции в человеческий капитал, качество образования, медицинские услуги, инновационная экономика, цифровая экономика, мировая экономика, трудовые ресурсы, безработица, валовой внутренний продукт.

**FACTORS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN THE PROCESS OF
IMPLEMENTATION OF CONCEPTS AND STRATEGIES FOR SOCIO-ECONOMIC
DEVELOPMENT OF THE COUNTRY**

PhD, assoc. prof. **Ubaydullaev Gayrat Zuvaitovich**
Karshi branch of the Tashkent University of Information
Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract. The purpose of the study is to study the theoretical and practical foundations of human capital development factors in the process of implementing concepts and strategies for the socio-economic development of Uzbekistan. Analysis of practical work aimed at improving science, education, health and culture for the development of human capital in the new Uzbekistan, development efforts along with world civilizations and countries of the world. In the process of forming human capital in the interests of innovative development, it is aimed at education, knowledge, skills, abilities, motivation, professional orientation of the individual, training of carriers of new knowledge, the formation of social demand and the development of competencies that satisfy needs.

Key words: education, education system, national human capital, investment in human capital, quality of education, medical services, innovative economy, digital economy, world economy, labor resources, unemployment, gross domestic product.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi va 28 sentabr 2023-yildagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari bilan mamlakatimizda keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi sa'y-harakatlari kutilgan natijalar berishiga to'la asos bor, deb baholanmoqda. Zero Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning havas qilsa arziyidigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziyidigan ulug' ajdodlarimiz bor". Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim deb ta'kidlab o'tdilar. Ta'kidlash joizki, bugun uchinchi Renessans masalasini o'ta strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarayotgan ekanmiz, maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilm-fan, madaniy-ma'rifiy masalalar bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi sifatida ko'rilmogda. Bu jarayonda bog'cha tarbiyachisi, maktab o'qituvchisi professor-o'qituvchilar va yosh ilmiy-ijodiy tadqiqotchilarimiz esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylanishi kerak. Renessans poydevorini yaratish o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun, avvalo yuzlab, minglab iste'dodli kadrlar, fidoyi shaxslar kerak. Darhaqiqat bugunki kunda mamlakatning rivojlanishi faqat mavjud tabiiy resurslar yoki aholi soniga bog'liq bo'lmay qoldi.

Adabiyotlar sharhi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalari va strategiyalarini amalga oshirish jarayonlarida inson kapitalini rivojlantirish omillarining nazariy va amaliy asoslarini ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar orqali inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, davlat tomonidan belgilangan islohatlarda aynan ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirishga qaratilgan.

Inson qadrini ulug'lashga qaratilgan strategiya va vatanimiz ravnaqi va kelajak istiqbolimizni belgilovchi muhim hodisa, intellektual salohiyatni rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifasi kabi gazetalardagi ilmiy maqolalarda inson kapitalini rivojlanib borayotganligi to'g'risida olimlarimiz Abduraxmonov (2022), Usmonov (2023), Rizaevlar (2023) tomonidan ilmiy asoslangan ta'rif va tahlillar keltirilgan.

"Inson kapitali innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy omili" deb nomlangan monografiyada Ubaydullaev (2023) tomonidan innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida zamonaviy bilimlar va raqamli iqtisodiy texnologiyalardan samarali foydalanib ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish jarayonlari keng ko'lamda yoritilgan bo'lib, inson kapitali hajmini oshishi jarayonida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari, axborot kommunikatsiyalaridan to'g'ri foydalanish, axborot jamiyatida odamlar farovonligi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bo'yicha asosli tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy tizimlarning innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli, jahon iqtisodiyotining globallashuvi davrida intellektual capital to'g'risida olimlarimiz Okunkova (2018), Golubkinlar (2005) tomonidan inson kapitalini rivojlantirish uchun imkoniyatlar va xatarlarning kombinatsiyasi uning ta'lim kabi muhim elementida to'liq aks etishi, inson kapitalining tarkibiy elementi sifatida ta'limning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, mintaqada innovatsion iqtisodiyotni shakllanishi yangicha texnologiyalarni joriy etilishi bu albatta inson kapitaliga bog'liq bo'ladi, inson kapitaliga qilingan sarf-xarajatlar dunyo sivilizatsiyalari va dunyo mamlakatlari qatori rivojlanishiga olib boradi mehnat unimdonligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda samarali bandlikni yuzaga keltirishi to'g'risida o'rinni va ahamiyatli ilmiy asoslangan ta'riflar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishining bajarishdan maqsad O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishish konsepsiyalari va strategiyalarini amalga oshirish jarayonlarida inson kapitalini rivojlanish omillarining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish. Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivoj topishi uchun ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan amaliy ishlarning tahlili, dunyo sivilizatsiyalari va dunyo mamlakatlari qatori rivojlanish harakatlari. Innovatsion rivojlanish manfaatlari yo'lida inson kapitalini shakllantirish jarayonida shaxsni ta'limga, bilim, ko'nikma, qobiliyat, motivatsiya, kasbiy yo'naltirishga, yangi ma'lumot egalarini tayyorlashga, ijtimoiy talabni shakllantirishga va inson kapitalini rivojlanishga muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmonining IV bo'limi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlanishish"ga qaratilgan bo'lib, 34 ta maqsadlarga yo'naltirilgan quyidagi taraqqiyot strategiyasini o'z ichiga oladi (Farmon, 2022).

Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 70 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, jumladan 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 2024/2025 o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalg qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish. Shuningdek, umumiyo o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturi amalga oshiriladi. Natijada, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab har yili 500 ming yangi quvvat tashkil etilib, o'quv o'rnlari soni 7,5 millionga yetkaziladi. 2,5 million o'quvchi o'rniga ega maktablar qurishga 8 mlrd. dollar ajratiladi. 2022-2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish. Maktabgacha ta'lim tizimida budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini moliyaviy jarayonlarining shaffof tarzda amalga oshirilishini ta'minlash. Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish. O'quv o'rnlari sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish. Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026 yilda 8

foizga, shu jumladan 2024 yilda 5 foizga oshirish. 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish. Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.

Yoshlarni oliy ta'lif bilan qamrab olish darajasini 2026 yilda 50 foizga yetkazilib, davlat granti asosidagi qabul parametrlari 2 barobarga oshiriladi. 2026 yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish. 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatlari oliy ta'lif muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash. "TOP-500" ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lif dasturi va "ikki diplomli tizim" joriy qilinadi. 5 ta oliy ta'lif muassasasi milliy tadqiqot oliygochlari aylantirilib, qo'shimcha 120 ming o'rinali o'quv binolari hamda 2026 yilga qadar 72 400 o'rinali 181 ta talabalar turar joylari barpo etish natijasida talabalarni yotoqxona bilan ta'minlash darajasi 60 foizdan oshiriladi. 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish. Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo'ljallangan "Yoshlar shaharchasi" ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarning nufuzli xorijiy oliygochlarga o'qishga yuborish ko'lamenti 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish.

Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan strategiyasi amalga oshiriladi.

Yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Tibbiy xizmatlardi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish. Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish. 2022-2023-2024 yillarda 70 ta oilaviy poliklinikalar, 225 ta oilaviy shifokor punktlarini tashkil etish. Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, inson kapitalini shakllantirishni va rivojlantirishni muhim bosqichlari hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirzaevning Farmoni bilan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu dasturilamal hujjat xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni bonyod etishda xohish – istagini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish,adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini barpo etish jarayonida ortirilgan tajriba va keng jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasi beshta yo'nalish va 100 maqsaddan iborat bo'lib, unda barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rinalish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lif, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, umuman olganda mazkur strategiyada barcha soha va yo'nalishlarda bir qator ustivor maqsad-vazifalar

o‘z aksini topgan. Har qanday sivilizatsiya yoki uyg‘onish jarayoni inson uchun, uning baxti-saodati, taraqqiyoti, farovon turmushi, orzu-istiklari amalga oshishi uchun xizmat qilishi kerak. O‘zbekistonda inson kapitalining rivoj topishi uning qiymati bilan o‘lchanadi, ya’ni turli usullar - investitsiya, ya’ni ta’lim tarbiyaga, ilmga, ma’rifatga, sog‘liqni saqlashga, jismoniy va madaniy tadbirlarga jalb qilinadigan sarmoyalar va boshqalar bilan hisoblanadi. Inson kapitali - bu sarmoyalar natijasida shakllanadigan va shaxs tomonidan to‘plangan, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida maqsadga muvofiq foydalilanligi, mehnat unumдорлиги va ishlab chiqarishning o‘sishiga yordam beradigan ma’lum bir salomatlik, bilim, ko‘nikma, qobiliyat, motivatsiya, samaradorlik zaxirasi. Inson kapitalini shakllantirish – bu ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan shaxsning yuqori sifatli ishlab chiqarish xususiyatlarini izlash, yangilash va takomillashtirish jarayonidir.

E’tirof etishimiz joizki, oxirgi yetti yilda maktabgacha ta’lim bo‘yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 41 foizga, oliygochlarni 77 tadan 213 taga yetkazilganligi sohadagi ishlar ko‘lami yoshlarning intellektual salohiyatini inson kapitalini rivojlantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini va ularning natijasini ko‘rsatib turibdi. Ta’lim sifatini oshirish maqsadida 2023 yil xorijiy mamlakatlardan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassisni maktablarda ish boshladi. Kelgusi yillarda ularning sonini 3 barobar oshirish, 10 va 11-sinflarda qator fanlarni o‘quvchilarning tanlovi asosida chuqurlashtirib o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, kurrai zaminimiz umumiyo boyligining 67 foizi 374 trillion AQSh dollari inson kapitaliga, ya’ni asosan, shaxsning ilm darajasiga to‘g‘ri kelmoqda. AQShda ushbu ko‘rsatkich milliy boylikning 77-foizi – 95 trillion dollarga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari “Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir” degan fikrni alohida keltirib o‘tadi.

Globallashuv, u qanday baholanishidan qat’i nazar, qaytarib bo‘lmaydigan jarayon, jahon taraqqiyotining muqarrar taqdiridir. Bu ham ko‘p qirrali hodisa, ham yoshlarga ta’sir etuvchi tabiiy omildir. Ushbu ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lgan globallashuv yoshlarga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda, global jarayonlarning inson kapitalini rivojlantirishga ijobiy ta’sirini o‘rganish g‘oyat dolzarbdir.

Global innovatsion indeks-mamlakatlarning innovatsion imkoniyat va ko‘rsatkichlari reytingidir. Bunda institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infiratuzilma, kreditlar, investitsiyalar, kommunikatsiya mezonlariga asoslangan holda innovatsiya darajalari o‘lchanadi. Yuqorida qayd etganimizdek, bu reyting ma’lum mezonlar asosida ishlab chiqiladi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri ham inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Strategiyaning maqsadi 2030 yilga kelib, O‘zbekistonning global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahoning kuchli 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishi zaruriy shart qilib qo‘yildi. Buni esa respublikamizning xalqaro maydonidagi raqobat bardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan tarqqiy etishini belgilovchi asosiy omil sifatida baholash va e’tirof etish mumkin. Shuni mammuniyat bilan aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi bo‘yicha kuchli uchtalikka kirgan yetakchi davlat bo‘ldi (Hindiston-40, Eron Islom Respublikasi-53 va O‘zbekiston-82). Global innovatsion indeks reytingi ko‘rsatkichlari jahon mamlakatlari iqtisodiyotini o‘zida qamrab olib, u 80 ga yaqin ko‘rsatgichlarlar asosida aniqlanadi. O‘zbekiston ko‘rsatgichlarning ikkinchisida, “Inson kapitali va tadqiqotlar” (Human capita & research)da 7 pog‘ona yuqorilab 30,8 daraja yoki 65-o‘rin egallagan. Umuman olganda, bugun O‘zbekistonning xalqaro indekslar va reyting ko‘rsatgichlariga erishishdagi muhim qadamlardan biri sifatida qabul qilingan Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi amalda ishlamoqda (Farmon, 2019). Buni xalqaro indekslar va reyting ko‘rsatgichlarida bosqichma-bosqich yuqorilab borayotganligimizdan ham anglash qiyin emas.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirishning innovatsion modeli, uning harakatlantiruvchi kuchlari, yangi bilimlar, shaxslar va umuman jamiyatning intellektual va ijodiy salohiyati inson kapitalini mamlakatning raqobatbardoshligi uchun strategik resursga aylantiradi. Inson salohiyati barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va milliy boylikning asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Mamlakatimizning rivojlanish rejalarini belgilovchi asosiy hujjatlarda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining asosiy tamoyillari qatorida o'zbek xalqining salohiyatini ro'yobga chiqarishdir. Ba'zi olimlar va iqtisodchilar ko'pincha "inson kapitali" va "inson salohiyati" tushunchalarini ma'no jihatidan teng deb hisoblashadi, ammo bizning fikrimizcha, bu ikki tushuncha o'xshash, ammo bir xil emas. Inson salohiyati konsepsiysi biroz kengroq bo'lib, nafaqat shaxsga investitsiyaning iqtisodiy tomonini, balki makro darajada inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va ishlatalish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni, masalan, hayot sifatini o'z ichiga oladi.

Inson kapitali - bu odamlar o'z hayoti davomida sarmoya kiritadigan va to'playdigan, jamiyatning hissa qo'shadigan a'zolari sifatida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va salomatlikdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda inson kapitaliga nisbatan qarashlar tubdan kengayib, unga qimmatbaho aksiya hamda daromadlar oqimi sifatida qaralmoqda. Chunki inson kapitali iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Buni dunyoga mashhur hind olimi, Nobel mukofoti sohibi (1998 yil) Amartiya Sen ilmiy asoslab bergen. Uning fikricha rivojlanish jarayoni faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning ortishi emas, balki jamiyatning har bir a'zosiga tanlov erkinligi yuqoriligini nazarda tutadigan shaxsning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Davlat nafaqat iste'mol tengligini, birinchi navbatda, ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari, shuningdek, siyosiy va fuqarolik huquqlari sohasida teng huquqlikni ta'minlashi kerak. Bu inson kapitalini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Global miqyosda keng qamrovli baholash va yangilangan dastlabki ma'lumotlarni to'plash bo'yicha harakatlar kuchli tomonlarni aniqlashi va inson kapitalini rivojlantirish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashi mumkin. "Inson kapitalini rivojlanish" loyihasi inson kapitalini rivojlanishiga hissa qo'shuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilishni boyitadi, masalan, "Xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari" dasturi va "Bolalik davridagi ta'lim sifati va natijalarini baholash" so'rovlarini kengaytirish orqali.

Inson kapitalini rivojlanishiga uchun imkoniyatlar va xatarlarning kombinatsiyasi uning ta'lim kabi muhim elementida to'liq aks etadi. Uning o'zgarishidagi asosiy tendensiya - bu aholining bilim darajasining oshishi. Aholining ma'lumot darajasining o'sishi nafaqat aholi va ish beruvchilar tomonidan unga bo'lgan talab bilan, balki tegishli infratuzilmaning rivojlanishi bilan ham bog'liq.

Inson kapitalining tarkibiy elementi sifatida ta'limning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ko'rinish turibdiki, xodimlarning kasbiy bilimlari kompaniyaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun asosdir. Ta'lim insonning nafaqat ishchi, balki o'quvchi sifatidagi samaradorligini oshiradi, ya'ni bilim va ko'nikmalarni yanada to'plash jarayonini tezlashtiradi va osonlashtiradi. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy olimlar aholining ta'lim darajasini, shuning uchun inson kapitalini oshirish, qoida tariqasida, bandlik va ish haqining oshishiga olib kelishini isbotladilar, bu esa iqtisodiy manfaatlardan tashqari, qulay ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

Shunga ko'ra, ta'lim kabi komponentning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- o'rganish va ijodiy fikrlash uchun individual qobiliyatları;
- umumiylar va kasb-hunar ta'limi tizimining holati;
- keksa oila a'zolarining ta'lim darajasi;
- oilaviy an'analar;

- fan va innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

Xulosa va takliflar.

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalişlariga e'tibor qaratdik. Shubhasizki, ushbu hujjatlarning har bir bandi mamlakatimiz taraqqiyotiga xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. Ushbu ulug'vor g'oyalar esa mamlakatimizda inson qadri va salohiyatini yuksaltirish orzu umidlarini ro'yobga chiqarish, tinch osoyishta baxtli va farovon hayotini ta'minlash bosh maqsadga aylanganini ifodasidir. Shu ma'noda, global jarayonlarning inson kapitalini rivojlantirishga ijobjiy ta'sirini o'rganish g'oyat dolzarbdir. Umuman olganda, O'zbekiston Global innovatsion indeks reytingida o'zining dastlabki qadamlarini dadil tashlagani va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar orasida salmoqli o'rinn egallab borayotgani barchamizga faxr bag'ishlaydi. Bu esa mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti, davlatimiz kuch-qudratining mustahkamlanishi hamda xalqimiz farovonligi darajasining o'ziga xos ko'zgusidir. Davlatimiz tomonidan ilm-fan, ta'lif va tarbiya, sog'liqni-saqlash va ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish sohasida katta miqdorda mablag'lar ajratilib investitsiyalar kiritilmoqda, amalga oshirilayotgan ushbu islohatlar yoshlарimizning bilimlar zaxirasini va darajasini oshiradi, shu bilan birga milliy inson kapitalining hajmi va sifati oshadi, ilmiy asoslangan xorijiy tajribalarning kirib kelishi va ularning usullaridan foydalanish, raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lif tizimini shakllantiradi. Darhaqiqat taraqqiyot yo'lida izchil rivojlanish uchun mamlakatimizda ta'lif - tarbiyaga, zamonaliviy bilimga ega bo'lgan mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar taylorlashga, ilm-fanni rivojlantirishga, sog'liqni-saqlashga, aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli ishlarni amalga oshirishda katta miqdorda investitsiyalar kiritilmoqda. Inson kapitalini boshqarish bu kelgusida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlantirish yo'lida kiritilayotgan investitsiyalarning ijobjiy samarasini bo'lib, inson kapitalining rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Abduraxmonov Q.X. (2022) "Inson qadrini ulug'lashga qaratilgan strategiya". Xalq so'zi 23 aprel 84-son.

Abduraxmonov Q.X. (2022) "Vatanimiz ravnaqi va keljak istiqbolimizni belgilovchi muhim hodisa". Yangi O'zbekiston 22 dekabr 260-son.

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" to'g'risidagi PF-5847 son Farmoni. [hmmn://уз.уз/nocmc/](http://уз.уз/nocmc/) 3271.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Xalq so'zi. 29 yanvar 2022 yil.

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 sentabr 2023 yildagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Xalq so'zi. 12 sentabr.

Rizaev N. (2023) "O'zbekiston janubiy Osiyo mintaqasi kuchli uchtaлиgida". Xalq so'zi 1 fevral 21-son.

Ubaydullaev G.Z. (2023) "Inson kapitali innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy omili". Monografiya. Qarshi "Intellekt" nashriyoti.

Usmonov B. (2023) "Intellektual salohiyatni rivojlantirish-bugunki kunning muhim vazifasi". Xalq so'zi 5 oktabr 209-son.

Голубкин В.Н. (2005) Интеллектуальный капитал в эпоху глобализации мировой экономики. Режим доступа: [hmmn://www.уллинк.ру/пуб/бусинес образ 1 18](http://www.уллинк.ру/пуб/бусинес образ 1 18). htm

Окункова Е.А. (2018) Роль человеческого капитала в инновационном развитии экономических систем / Е.А. Окункова // Глобальный научный потенциал.- №11- С. 120-123.